

**MOLIYAVIY ERKINLIK SARI YO‘L - NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR**

**Kamolov Shohjaxon Sherzodovich**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 1 bosqich talabasi*

[kamolov.shohjaxon.sherzodovich.77@gmail.com](mailto:kamolov.shohjaxon.sherzodovich.77@gmail.com)

**Ruzikulova Laylo**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o‘qituvchisi*

[laylorozikulova@gmail.com](mailto:laylorozikulova@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 12.06.2026*

*Revised: 13.06.2026*

*Accepted: 14.06.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*moliyaviy erkinlik,  
moliyaviy savodxonlik,  
investitsiya, daromad,  
xarajat, jamg‘arma,  
odatlar, psixologiya*

*Ushbu ilmiy maqolada moliyaviy erkinlik tushunchasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar kontekstida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsiy moliyani boshqarish, daromad va xarajatlar muvozanatini ta‘minlash, jamg‘arma va investitsiya strategiyalarini shakllantirish kabi muhim omillar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, insonning moliyaviy qarorlariga psixologik omillar, xususan, pulga bo‘lgan munosabat va odatlar tizimining ta‘siri alohida ko‘rib chiqiladi.*

**KIRISH**

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy erkinlik masalasi inson hayotidagi eng muhim iqtisodiy maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda insonning hayot sifati, ijtimoiy barqarorligi va kelajakdagi imkoniyatlari ko‘p jihatdan uning moliyaviy holati bilan belgilanadi. Shu sababli moliyaviy savodxonlik va shaxsiy moliyani boshqarish ko‘nikmalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy erkinlik deganda insonning kundalik ehtiyojlarini qondirishda faqat asosiy ish haqi yoki tashqi moliyaviy yordamga bog‘liq bo‘lmagan holda, o‘z mablag‘lari va passiv daromad manbalari orqali barqaror hayot kechira olishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan erkin inson iqtisodiy bosimlardan nisbatan holi bo‘ladi, uzoq muddatli maqsadlarini mustaqil rejalashtira oladi hamda favqulodda vaziyatlarda moliyaviy qiyinchiliklarga bardosh bera oladi.

Ko‘pchilik insonlar moliyaviy muvaffaqiyatni yuqori daromad bilan bog‘laydi. Biroq iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning moliyaviy barqarorligi nafaqat topgan daromadiga, balki mablag‘larni qanday boshqarishiga ham bog‘liqdir. Daromad oshgani sari xarajatlarning ham ortib borishi moliyaviy intizomning naqadar muhim ekanligini

ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy savodxonlik insonning daromadni boshqarish, xarajatlarni rejalashtirish, jamg'arma yaratish, investitsiya qilish va moliyaviy xavflarni kamaytirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida moliyaviy madaniyatni rivojlantirish kelajakdagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Aynan hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda esa moliyaviy erkinlikka erish va moliyaviy ahvolni yaxshilash juda muhim omil hisoblanadi. Oddiy hayot va kambag'alikdan qutilish va ijtimoiy hayotini yaxshilashni hohlagan inson ko'p aynan shu maqola orqali siz bunga erisha olasiz qanday manoda bu maqolani o'qib boyib ketaman degan fikr emas balkim maqoladagi ilim qarashlar fikirlar va ko'pkina tajribalarni amalda hayotingizda qilish intizom va bilim orqali erisha olasiz

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi moliyaviy erkinlik tushunchasining mohiyatini ilmiy jihatdan yoritish, unga erishish omillarini tahlil qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi samarali usullarni aniqlashdan iborat.

### **METOD VA METODOLOGIYA**

Moliyaviy erkinlik tushunchasi zamonaviy iqtisodiy va psixologik tadqiqotlarda muhim o'rin egallab, u nafaqat iqtisodiy, balki xulq-atvor va kognitiv omillar bilan ham chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda bir qator nufuzli ilmiy va ommabop asarlar mavjud bo'lib, ular moliyaviy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini turli nuqtai nazardan yoritadi.

Avvalo, Morgan Houselning "Pul psixologiyasi" asarida moliyaviy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida bilim yoki texnik ko'nikmalar emas, balki insonning xulq-atvori va psixologik qarorlari e'tirof etiladi. Muallif moliyaviy qarorlar ko'pincha mantiqiy emas, balki emotsional va subyektiv tajribalarga asoslanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning riskka bo'lgan munosabati, sabr-toqati va uzoq muddatli fikrlash qobiliyati moliyaviy natijalarni belgilovchi asosiy determinantlar hisoblanadi. Xususan, Housel quyidagicha fikr bildiradi: "Moliyaviy muvaffaqiyat bu bilim emas, balki xulq-atvordir." Ushbu qarash moliyaviy savodxonlikni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, uni amaliy xulqiy kompetensiyalar bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi.

Keyingi muhim manba sifatida James Clearning "Atom odatlari" asari alohida ahamiyatga ega. Mazkur kitobda inson xulq-atvorini shakllantirishda kichik, ammo muntazam takrorlanadigan odatlarning roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Muallifning asosiy g'oyasi shundan iboratki, kichik o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan eksponensial natijalarga olib keladi. Clear ta'kidlaydi: "Har kuni 1 foizga yaxshilanish uzoq muddatda katta natijaga olib keladi." Ushbu yondashuv moliyaviy boshqaruvda ham dolzarb bo'lib, muntazam tejash, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish va investitsiya qilish kabi kichik odatlar uzoq muddatda moliyaviy mustaqillikni ta'minlaydi.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Bodo Sheferning "7 yilda birinchi million dollar" asarida esa moliyaviy erkinlikka erishishning aniq strategik modellari keltiriladi. Muallif kapitalni shakllantirish, daromad

manbalarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy intizomni rivojlantirishni asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. U quyidagicha ta'kidlaydi: "Sizni boy qiladigan narsa ishlab topgan pulingiz emas, balki saqlab qolgan pulingizdir." Bu fikr jamg'arma va kapitalni boshqarishning ustuvor ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, Shefer uzoq muddatli investitsiya strategiyalarini qo'llash orqali barqaror moliyaviy o'sishga erishish mumkinligini asoslaydi. Shuningdek, David Bach va John David Mann tomonidan yozilgan "The Latte Factor" ("Late omili") asari kundalik moliyaviy xatti-harakatlarning uzoq muddatli ta'sirini tahlil qiladi. Mualliflar kichik, e'tiborsiz ko'rinadigan xarajatlar (masalan, kundalik qahva xaridi) vaqt o'tishi bilan katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishini matematik va amaliy misollar orqali asoslaydi. Ushbu yondashuv "mikroxarajatlar nazariyasi" sifatida qaralib, u insonlarning moliyaviy qarorlarida e'tibor yetishmaydigan jihatlarni ochib beradi. Asarda asosiy urg'u shundaki, moliyaviy muvaffaqiyat katta daromadlardan emas, balki ongli ravishda boshqarilgan kichik xarajatlardan boshlanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy erkinlikka erishish ko'p omilli jarayon bo'lib, u iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda psixologik barqarorlik, to'g'ri odatlar va strategik rejalashtirishni talab qiladi. Ushbu manbalarning umumiy xulosasi sifatida aytish mumkinki, moliyaviy muvaffaqiyat — bu tizimli yondashuv, uzoq muddatli fikrlash va intizomli xulq-atvor natijasidir.

Usullar: Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tahliliy, qiyosiy, statistik hamda kuzatish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini moliyaviy savodxonlik va moliyaviy erkinlik mavzusiga oid ilmiy adabiyotlar, amaliy qo'llanmalar hamda iqtisodiy manbalarni o'rganish tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida Atomic Habits, The Psychology of Money, The Latte Factor hamda 7 Years to 1 Million Dollars asarlaridagi ilmiy va amaliy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida 18–30 yosh oralig'idagi 50 nafar respondent o'rtasida moliyaviy savodxonlik, jamg'arma odatlari, investitsiya faoliyati va xarajatlarni boshqarish bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari asosida respondentlarning moliyaviy xatti-harakatlari statistik jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida respondentlarning:

daromadni rejalashtirish darajasi;

xarajatlarni nazorat qilish odatlari;

tejash ko'nikmalari;

investitsiyaga bo'lgan qiziqishi;

passiv daromad yaratish usullari o'rganildi hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri baholandi.

Ko'plab tadqiqotlar va ilmiy qarashlarni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki 50-30-20 qoidasi haqida ko'pchilik eshitgan bo'lsa kerak. Bu shaxsiy byudjet uchun mashhur qoida bo'lib daromadni 3 guruhga ajratish kerakligini ifodalaydi. Bular 1) ehtiyoj-yashash uchun zarur bo'lgan birlamchi xarajatlar; 2) istak xohish juda zarur bo'lmagan narsa va

faoliyatlarga qilinadigan ikkinchi xarajatlar; 3) jamg'arma-turli vaziyatlardek kerak bo'ladigan va mablag'ni ko'paytirishga ajratiladigan qism. Byudjetni rejalashtirishda 50-30-20 qoidasiga o'xshash bir nechta yondashuvlar bor.

Masalan; 70(ehtiyoj) 20(jamg'arma) 10(istak-xohish) yoki 80(ehtiyoj va istak-xohish) 20(jamg'arma/investitsiya) yokida 1-o'rinda jamg'arma/investitsiya ajratib qolgan qismini xarajatlarga yetkazish. Har bir kishi o'zining shaxsiy ( oilaviy) byudjetini yuqori aytib o'tilgan 3 guruhga ajratib rejalashtirish tavsiya qilinadi. Lekin taqsimotni kishi o'zining holatidan kelib chiqib belgilashi kerak. Ya'ni kimlardadir ko'p qarzi bo'lsa ehtiyojlaridan qolganining ko'proq qismini qarzi uzishga sarflashi yoki hozirda xarajatlari ko'p bo'lmaganlar daromadining asosiy qismini jamg'armaga yo'naltirishi mumkin. Muhimi pullaringizni samarali boshqarish va moliyaviy maqsadlaringizga erishish uchun o'zingizga byudjet yaratib olishingiz zarur. Agar hali yaratmagan bo'lsangiz o'tgan oylardagi daromad - xarajatlaringizni tahlil qiling va 3 ta guruhga qanday taqsimlanayotganini tekshiring. Keyin kelgusidagi moliyaviy maqsadlaringizni belgilab shunga mos byudjet yaratib amal qiling.

Shuningdek, moliyaviy erkinlikka ta'sir qiluvchi omillar foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirilib, jadval va tahliliy natijalar shaklida yoritildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar nazariy umumlashtirish va solishtirma tahlil asosida ilmiy xulosalarga keltirildi. Tadqiqot natijalari moliyaviy erkinlikka erishish jarayonida moliyaviy savodxonlik, foydali odatlar, investitsion faoliyat hamda uzoq muddatli rejalashtirish asosiy omillar ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar davomida shaxsiy moliyani rejalashtiruvchi insonlarning moliyaviy barqarorlik darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, muntazam ravishda daromadining ma'lum qismini jamg'aradigan insonlarda moliyaviy xavfsizlik darajasi boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli yuqori bo'lgan. Xususan, daromadining kamida 20 foizini tejash va investitsiyaga yo'naltiruvchi insonlarda uzoq muddatli kapital o'sishi kuzatilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan insonlarda ortiqcha iste'mol xarajatlari va qarzdorlik holatlari ko'proq uchraydi. Rejalashtirilmagan xarajatlar esa moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, favqulodda holatlar uchun moliyaviy zaxiraning mavjud emasligi iqtisodiy xavflarni oshiradi.

Shuningdek, investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonlarning passiv daromad olish imkoniyatlari kengaygani kuzatildi. Ko'chmas mulk, biznes va aksiyalarga investitsiya qiluvchi insonlarda kapitalning o'sish sur'ati yuqoriroq bo'lgani aniqlandi. Bundan tashqari, foydali kundalik odatlar ham moliyaviy muvaffaqiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Xarajatlarni yozib borish, moliyaviy maqsad qo'yish, doimiy o'qib-o'rganish va intizomli rejalashtirish insonning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi aniqlandi.

1)Moliyaviy erkinlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlili

OMILLAR	TA'SIR DARAJASI %	ILMIY TAHLIL
1. Moliyaviy savodxonlik	35%	Moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan insonlar mablag'larini samarali boshqaradi va iqtisodiy xavflarni kamaytiradi
2. Foydali moliyaviy odatlar	25%	Kundalik tejash, xarajatlarni nazorat qilish va rejalashtirish moliyaviy intizomni shakllantirish
3. Investitsiya faoliyati	20%	Investitsiyalar passiv daromad manbalarini yaratib kapitalning uzoq muddatli o'sishini ta'minlaydi
4. Passiv daromad manbalari	10%	Qo'shimcha daromad manbalari moliyaviy mustaqillikni kuchaytiradi

Jadval tahlili

Jadval natijalariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik moliyaviy erkinlikka erishishdagi eng muhim omil sifatida baholandi. Bu insonning mablag'larni boshqarish, investitsiya qilish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish ko'nikmalari bilan bog'liqdir. Shuningdek, foydali odatlar va investitsion faoliyat ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar qatoriga kiradi.

2)Moliyaviy muammolarning asosiy sabablari

Moliyaviy muammolarning asosiy sabablari	Ulushi (%)
1. Xarajatlarni rejalashtirmaslik	32%
2. Moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi	26%
3. Ortiqcha iste'mol xarajatlari	18%
4. Investitsiya bilimining pastligi	14%
5. Favqulodda zaxira mablag' yo'qligi	10%

Jadval tahlili

Natijalar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy muammolarning asosiy sababi xarajatlarni noto'g'ri boshqarish va moliyaviy rejalashtirishning sustligidir. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlikning past darajasi insonlarning investitsiya va jamg'arma imkoniyatlaridan samarali foydalana olmasligiga sabab bo'ladi.

3) Moliyaviy barqarorlikni oshiruvchi amaliy usullar

Amaliy usullar	Samaradorlik darajasi (%)
1. Daromadning bir qismini tejash	30%
2. Investitsiya qilish	25%
3. Qo‘shimcha daromad yaratish	20%
4. Xarajatlarni nazorat qilish	15%
5. Moliyaviy rejalashtirish	10%

**Jadval tahlili**

Tahlillar natijasida tejash va investitsiya qilish moliyaviy barqarorlikni oshirishdagi eng samarali usullar sifatida qayd etildi. Qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish ham insonning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashi aniqlandi.

Ikkinchi jihat sifatida odatlar tizimining roli alohida e‘tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari James Clearning mikro-odatlar nazariyasi bilan to‘liq mos keladi. Moliyaviy jihatdan kichik, ammo muntazam harakatlar (masalan, daromadning ma’lum qismini tejash yoki investitsiya qilish) uzoq muddatda murakkab foiz (compound effect) mexanizmi orqali sezilarli natijalar beradi. Bu jarayon eksponensial o‘shish modeli bilan izohlanadi va u moliyaviy strategiyaning samaradorligini vaqt omiliga bog‘liq holda oshiradi. Demak, moliyaviy erkinlikni tezkor natija sifatida emas, balki uzoq muddatli jarayon sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Uchinchi muhim natija passiv daromad manbalarining ustuvorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, faqat faol daromadga asoslangan moliyaviy model yuqori xavfga ega, chunki u insonning jismoniy va vaqt resurslariga bevosita bog‘liqdir. Bodo Sheferning konsepsiyasiga muvofiq, kapitalni shakllantirish va uni daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirish orqali moliyaviy mustaqillikka erishish mumkin. Bu yerda muhim jihat shundaki, kapitalni jamg‘arishdan ko‘ra uni samarali boshqarish va ko‘paytirish ustuvor hisoblanadi.

To‘rtinchi jihat sifatida “Late omili” nazariyasi asosida mikrojarajatlarning uzoq muddatli ta’siri muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik va e‘tiborsiz xarajatlar vaqt o‘tishi bilan kapital to‘planishiga sezilarli to‘sqinlik qiladi. Bu hodisa xulq-atvor iqtisodiyotidagi “kognitiv befarqlik” (inattention bias) bilan izohlanadi. Ya’ni, insonlar kichik xarajatlarni ahamiyatsiz deb hisoblab, ularning kumulyativ ta’sirini e‘tibordan chetda qoldiradilar. Shu sababli, moliyaviy rejalashtirishda mikro darajadagi nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy erkinlik inson hayotidagi muhim iqtisodiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Unga erishish uchun inson moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishi, foydali odatlarni shakllantirishi hamda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni yo‘lga qo‘yishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tejash, investitsiya qilish, passiv daromad yaratish va moliyaviy intizomga amal qilish moliyaviy barqarorlikning asosiy omillari hisoblanadi. Shuningdek, muntazam bilim olish va shaxsiy

rivojlanish ham moliyaviy muvaffaqiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, moliyaviy erkinlik tasodifiy holat emas, balki bilim, sabr, intizom va to'g'ri strategiyalar asosida shakllanadigan uzoq muddatli jarayondir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari moliyaviy erkinlikka erishishda motivatsion omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Aniq maqsad va strategik reja mavjud bo'lgan holatda shaxslar moliyaviy intizomga ko'proq amal qiladilar. Bu esa o'z navbatida uzoq muddatli natijalarga erishish ehtimolini oshiradi. Psixologik nuqtai nazardan, bu holat ichki motivatsiya va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar bilan izohlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Clear J. Atomic Habits. — Avery Publishing, 2018.
2. Housel M. The Psychology of Money. — Harriman House, 2020.
3. Bach D. The Latte Factor. — Atria Books, 2019.
4. Schäfer B. 7 Years to 1 Million Dollars. — Financial Freedom Publishing, 2003.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy savodxonlik materiallari.
6. Zamonaviy iqtisodiyot va investitsiya faoliyatiga oid ilmiy maqolalar va tahliliy manbalar.
7. Laylo, Ruzikulova. "SUNIY INTELLEKT VA AKADEMIK INGLIZ TILINI ORGANISH." *BILGI ÇEŞMESI* 2.4 (2026): 58-64.
8. Laylo, R. (2026). SUNIY INTELLEKT VA AKADEMIK INGLIZ TILINI ORGANISH. *BILGI ÇEŞMESI*, 2(4), 58-64.
9. Laylo, Ruzikulova. "SUNIY INTELLEKT VA AKADEMIK INGLIZ TILINI ORGANISH." *BILGI ÇEŞMESI* 2.4 (2026): 58-64.
10. Laylo, R. (2026). SUNIY INTELLEKT VA AKADEMIK INGLIZ TILINI ORGANISH. *BILGI ÇEŞMESI*, 2(4), 58-64.
11. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJI VA OGOHLIK TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHİYATI." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 7. 2026.
12. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
13. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
14. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYLAŞUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.

- 
15. Xurshid, Nomozov. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41 (2025): 632-636.
16. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*,(3) (2023): 67-67.
17. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2 (2023): 8-14.
18. Omonov, Bakhodir. "The Expression of Geopolitical Knowledge in the Works “the City of Virtuous People” and “India”." *JournalNX* 9.6 (2023): 16-20.
19. OMONOV, Bahodir. "“DASTUR UL-MULUK” VA “SADDI ISKANDARIY” ASARLARIDA GEOSIYOSIY QARASHLAR." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2 (2024): 180-183.
20. Omonov, Bakhodir. "The use of water resources in the center of environmental policy in the region." *The Fifth International Conference on History and Political Sciences*. 2015.
21. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "Specific characteristics of the ecological environment in uzbekistan." *World of Scientific news in Science* 1 (2023): 15-28.
22. Omonov, Bahodir. "Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia." *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry* 12.8 (2021).
23. Kenjayev, Zarmamat, Megliyev Azamat, and Jalilov Ixtiyor G‘aniyevich. "NOGIRONLIGI BO ‘LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI: INKLYUZIV JAMOAT SARI." *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 82-86.
24. Kenjayev, Zarmamat, Abdullayev Xurshid, and Jalilov Ixtiyor G‘aniyevich. "INSON HUQUQLARI VA MAJBURIY MEHNAT." *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 100-104.
25. Kenjayev, Z., Xurshid, A., & G‘aniyevich, J. I. (2026). INSON HUQUQLARI VA MAJBURIY MEHNAT. *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(6), 100-104.
26. Kenjayev, Zarmamat, Tog‘aymurodov Donyor, and Jalilov Ixtiyor G‘aniyevich. "RAQAMLI DAVRDA INSON HUQUQLARI: SHAXSIY MA’LUMOTLAR DAXLSIZLIGI VA SO ‘Z ERKINLIGI MUAMMOLARI”." *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 94-99.
27. Kenjayev, Z., Donyor, T. A., & G‘aniyevich, J. I. (2026). RAQAMLI DAVRDA INSON HUQUQLARI: SHAXSIY MA’LUMOTLAR DAXLSIZLIGI VA SO ‘Z ERKINLIGI MUAMMOLARI”. *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(6), 94-99.

=====  
28. Kenjayev, Zarmamat, Baxodirov Nursulton, and Jalilov Ixtiyor G'aniyevich. "AYOLLARNING HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI." *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 110-114.

29. Kenjayev, Z., Nursulton, B., & G'aniyevich, J. I. (2026). AYOLLARNING HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(6), 110-114.

30. Jalilov, Ikhtiyor. "National "Kurash": History and Contemporary (On the Example of the Uzbek People)." *Procedia of Social Sciences and Humanities* 1 (2021): 360-363.

31. Sayxonovna, Maksadova Mexriniso, and Ismatova Oyimsiluv Rahimberdiyevna. "TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 105-109.

32. Sayxonovna, Maksadova Mexriniso. "OSMIRLARNING MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH." *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 87-93.

33. Sayxonovna, Maksadova Mexriniso. "PEDAGOGIK MULOQOTNING VA UNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 2.6 (2026): 121-12